

QARILIK DAVRIDAGI SHAXSLARNING IJTIMOY FAOLLIGI-UZOQ UMR KO’RISH OMILI SIFATIDA

**Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika-psixologiya
kafedra katta o’qituvchisi
Abdulmajidova Mahdiyona Dilmurodjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari yo’nalishi 1- bosqich talabalari
Buvabekova Xonzodaxon va Sobirova Munojatoy**

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson organizmini qarish jarayoni, keksalik muammolari, biologik o’zgarishlari, umumfiziologik va psixofiziologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Gerontopsixologiya, Gerontogenez, psixosotsial, detereminant

Gerontopsixologiya- (yunoncha geron –qari, keksa va psixologiya) gerontopsixologiya va yosh psixologiya sohasi. Inson organizmining qarish jarayonini anglatadigan tibbiy va biologik fanlarning bir bo’limi hisoblanadi. Gerontopsixologiya faning asoschisi Stenli Xoll hisoblanadi. Gerontopsixologiya – qari kishilardagi umumfiziologik va psixofizik xususiyatlar bilan ularning xatti- harakatlari, felining psixologik xususiyatlari o’rtasidagi aloqadorlikni, shaxs faoliyati va boshqa omillar bilan bog’liq o’zgarishlarni o’rgandi. Gerontopsixologiyaning umumiy vazifasi – kishilarning qarigan ham bardm tetik yashashiga yordam beradigan vositalarni izlab topish. Qarilikning boshlanishi ijtimoiy mezon sifatida insonning nafaqaga chiqishi bilan belgilanadi. Rossiya gerontologiyasi asoschilaridan biri I.V. Davidovskiy keksalik boshlanishining aniq sanasi mavjud emas, degan fikrni bildirgan[1.]. Haqiqatdan ham keksalik boshlanishining aniq bir sanasi mavjud emas. Keksalik ba’zilarida erta yana ba’zilarida esa kechroq boshlanadi. Bu bo’yicha bir qancha olimlar bir qator tajribalar o’tkazishgan. Keksalikning yosh chegaralari muammosi qarilikning yosh chegaralarini turli olimlar turlicha tavsiflashadi, lekin ko’pchilik 60—65 yoshni qarilikning boshlanishi sifatida e’tirof etishadi. Misol sifatida bir necha olimlarning qarashlarini keltiramiz:

1. Chexiyalik professor B. Prijigoning tajribalarida 60-75 — qarilik, 75-100 yosh keksalikni ko’rsatgan.

2. Dj. Birrenning tajribalarida so’nggi yetuklik 50—75 yosh bo’lsa, qarilik 75 yoshdan boshlanishini ta’kidlab o’tgan.

3. D.B. Bromley qarilikning 3 bosqichga bo’lib o’rgangan’;

a) 65-70 yosh sevimli ishdan uzoqlashish;

b) 70 yoshdan keyin keksalik;

d) 110 yoshgacha — munkillaganlik, qarib kasalga chalinish va o’lim.

Keksayish davri 61 yoshdan 74 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu yoshdagi kishilar shaxslararo munosbatlarda boshqa yoshdagi kishilardan ajralib turadi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo’lish mumkin:

1) mutlaqo istefoga chiqqan, ijtimoiy faol bo’lmagan erkak va ayollar;

2) nafaqaga chiqqan erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko’rsatayotgan keksalar.

Psixologik keksayish - individ o’zi keksayish jarayonini qanday tasavvur qiladi va his qiladi, boshqalarning keksayishi bilan o’zini taqqoslab keksayish jarayoniga qanday munosabatda bo’ladi.

Biologik keksayish — yosh o’tishi bilan organizmda o’zgarishlarning sodir bo’lishi. Ya’ni keksalarda ko’rish, ta’im bilish va eshitishning pasayishini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ijtimoiy keksayish — individ keksayishni jamiyat bilan, ijtimoiy rollarni bajarish bilan qanday bog’laydi. Aynan keksalik davrida inson organizmining jismoniy zaifligi va sog’likni yomonlashuvi natijasida ruhiyatda ham o’zgarishlar kuzatiladi. Yosh o’tishi bilan keksalarda 17-22 foiz to’qimalar qisqarib boradi. Keyin esa oshqozon, qizilo’ngach, o’n ikki barmoqli ichak, o’t qobig’i, oshqozon osti bezi hamda buyraklardagi 11-30 foiz, bir o’zi besh xil funksiyani bajaradigan jigardagi 12-

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

14 foiz to‘qimalarda atrofiya boshlanadi. Natijada insonlarning funksional va reaktiv imkoniyatlari pasayadi.[2]

Qarilikning 1 –davri gerontogenez yoki keksayish deb ataladi.

Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra bu davr 60 yoshdan keyin boshlanadi desa ayrimlari ayollarda 55 erkaaklarda 60 yoshdan boshlanadi deb aytishgan. Bu yoshdagi insonlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin .

- 1 Qariyalar
2. Keksalar
3. Uzoq umr ko‘ruvchilar

Yetuklik va keksalik orasidagi inqiroz 55—65 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Keksalik davridagi inqirozni nafaqadan oldingi inqiroz deb ataladi, bunda asosiy determinant sifatida ijtimoiy omil nafaqa yoshiga yetish omili ko‘rsatiladi. Darhaqiqat nafaqaga chiqish inson hayotini tubdan o‘zgartirib yuboradi, jamiyatdagi muhim ijtimoiy rolining yo‘qotilishi, insonning o‘z referent guruhidan ajralishi, muloqot doirasining torayishi, moddiy ahvolining yomonlashuvi, ba‘zan «iste’fo shoki» holatining o‘tkir kechishida namoyon boladi. Bu holat ko‘pchilik qartayayotgan insonlarda qiyin kechadi, salbiy hissiy holatlarni vujudga keltiradi.

Ijtimoiy nazariyalarga «erkinlik» hamda «o‘yindan chiqish» nazariyalari misol bo‘la oladi. Jamiyattan uzoqlashuv, motivatsiyaning o‘zgarishi, kommunikativlikning pasayishi, o‘z ichki dunyosiga o‘ralashib qolish kabilarda kuzatiladi. Subyektiv ravishda bu kerak emaslik tuyg‘usi, qiziqishlar doirasining pasayishi, uning o‘ziga qaratilishida namoyon boladi. Bu jarayon insonning nafaqaga chiqishi bilan boshlanadi, lekin qari inson ishxonada nimalar bo‘layotgani bilan qiziqib turadi, lekin bu sekin-asta sun‘iy harakterga ega bola boradi, sekinlik bilan bu ham to‘xtaydi. Insonga keladigan ma’lumotlar kamayib boradi, qiziqishlar doirasi torayadi, faolligi pasayadi, qarish jarayoni tezlashadi.

E.Erikson konsepsiyasida qarilik ilgarigi hayot yolining tugashi sifatida talqin etiladi. Keksalik psixosotsial inqirozining mohiyati shundan iboratki, Egoning yaxlitlikka erishishidir. Kexsa psixologik yoshga olish muvaffaqiyatini E.Erikson oldingi yosh inqirozlarini ijobiy hal qilish bilan boglaydi. Eriksonning ta’kidlashicha, donishmandlik ruhning ma’lum holati bolib, bunda olmish, hozir va kelajakka bir vaqtda boqish, hayot tarixini tasodiflardan xalos etish hamda avlodlar bilan aloqa o‘rnatish sifatida talqin etiladi.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Inson organizmi keksayayotgan paytda uning psixikasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Uning o‘ziga bo‘lgan menini pastlashi, jismoniy quvvatining kamayishi, o‘z sevimli kasbidan voz kechishi kabi muammolari mavjud bo‘ladi. Shunday davrda ularni atrof-muhitdagi insonlar tushunishi, ko‘proq e’tibor berishlari, kamchiliklarini yashirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.G‘oziyev E Umumiy psixologiya TO‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati 2010
2. Ergasheva Mohina –Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasining KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI’ nomli maqolasi
- 3.Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya Z.T.Nishonova, N.G‘.Kamilova D.U.AbdullayevaT-2019